

TONG yulduzi

N: 41
(66478)

2004 yil
11 oktabr - 17 oktabr

Gazeta 1929 yil
1 avgustdan chiqarilgan

O'zbekiston bolalari
va o'smirlarining gazetasi

Muassislar:

O'ZBEKISTON MATBUOT VA AXBOROT AGENTLIGI,
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI,
«KAMOLOT» YOSHLAR IJTIMOYIY HARAKATI.

ONA YURTNING - KUYI BOSHQA, SO'ZI BOSHQA, MEHRI BOSHQA

Aziz bolajonlar, yaqinda tahririyatimizga Turkmanistondan mehmon keldi.

-Yo'lim tushib, O'zbekistonga kelgandim, sizlarni ham bir ko'rib ketay dedim, dedi u.



Bu sirli mehmon nega aynan bolalarni nashrida qidirib kelibdi, deya

ajablanayotgandirsiz? Buning sababini o'zimiz ham sal keyinroq bildik.

Guljamol Mullaboyeva asli farg'onalik ekan. 18 yildan beri Turkmanistonda yasharkan. U bu yerga kelib diyorumizni, ayniqsa, ota yurti Farg'onani taniyolmay qolibdi. Bunday ijobiy o'zgarishlardan boshi osmonga yetibdi va jannatmakon yurtning egalari - siz bolajonlarga hayajonlarini yuqtirmoqchi bo'libdi.

Viloyat gazetasi «Maru shoxu-jahon»da muxbir bo'lib

ishlab kelayotgan Guljamol Mullaboyevaning she'rlari, hikoyalari orasida bolajonlarga atalganlari ham talaygina ekan. «Vatanim», «Qo'g'irchog'im» kabi to'plamlari

- Nega sen doim o'z uyingni orqalab yurasan?
- deb so'rashdi jonivorlar toshbaqadan.
- O'z uyim - o'lan to'shagim, - deb javob qildi toshbaqa.

turkman bolalari nashri - «Oltin asrning avlodlari»da chop etilgan ekan.

Guljamol opangiz bilan qurgan maroqli suhbatimiz davomida turkmanistonlik

tengdoshlaringizning ham siz kabi bilimga chanchoq, hunarli bo'lishga, til o'rganishga, kompyuter bilimdoni bo'lishga ishtiyoqmand ekanliklarini bilib oldik. Turkman bolalari ayniqsa sharq tillarini o'rganishga alohida ahamiyat berisharkan. Bu tillar ularning tarixi bilan uzviy bog'liqligini, ko'plab shoirlarining aynan turkiy tilda ijod qilganliklarini yaxshi bilisharkan...

-Turkmanistondagi hayotimdan

hecham nolimayman. Lekin kindik qonim to'kilgan yurt sog'inchi baribir boshqacha bo'ladi-da,-deydi Guljamol opangiz.

Xalqimizda ajoyib bir udum bor: mehmonga quruq qo'l bilan borib bo'lmaydi. Bu udumni yaxshi bilgan Guljamol opangiz ham o'z ijodidan namunalari berib ketdi. Ularni e'tiboringizga havola qilayapmiz:

ONA YURTNING...

- Ona yurtning - kuyi boshqa,
So'zi boshqa,
Mehri boshqa,
Ko'rki boshqa.
- Ona yurtning - fasti boshqa,
Guli boshqa,
Hidi boshqa,
Suvi boshqa.
- Ona yurtning to'yi boshqa,
Urfi boshqa.
Afsonasi,
Fili boshqa.
- Ona yurtning - gardi boshqa,
Fog'i boshqa,
Yo'li boshqa,
Cho'li boshqa.
- Ona yurtning - dardi boshqa,
Ona yurtning
Veri boshqa - qalbi boshqa!

BOLALAR UMIDA

Bilaman, kutyapsiz yana onangiz,
Intizor kutyapsiz hamon olangiz.
Intiq bo'lyapsiz ular yo'lga,
Umid bog'lab ularning sarob mehriga.

Fushunaman bu mungli ko'zlaringizni,
Ulardagi g'am-anduh menga ham tanish.
Bozortlarda sotilmas onalar afsus,
Otlar-chun buyurtma berilmas maxsus.

Qo'lchangizni bering, tutib meni mahkam,
Buyuk Varatgandan qilay tilaklar.
Balki dunyodagi barcha millatlar,
Filagimga birdak yo'ldosh bo'lartlar.

Sizni kutayotgan kelajak uchun,
Omon bo'lsin sizning aziz boshingiz.
Sog'lom va baquvvat kamolga yeling,
Yuz bilan yuzdashsin, oshsin yoshingiz.

Guljamol MULLABOYEVA.

Mening 9 yoshli singlim bor. U ertak o'qishni, eshitishni juda yaxshi ko'radi. Oilamiz bilan «Sug'diyona», «Bekajon», «Darakchi» kabi gazetalarning muxlisimiz. Singlim esa ularni bir-bir varaqlab chiqardi-yu, o'qimay tashlab qo'yardi. Shuning uchun ham uni gazeta va jurnallar o'qishga qiziqmaydi, deb o'ylardim.

SOTUVDA 150 SO'M

Bir kuni nima ham bo'ldi-yu, o'zimga gazeta sotib olayotganimda, qaytimiga bitta «Tong yulduzi» gazetasini berishdi. Ne ko'z bilan ko'rayki, o'qishni yoqtirmaydigan singlim bosh ko'tarmay gazetani o'qiy boshladi. O'qiganlarini bizga ham zavq bilan so'zlab berdi. Bizning sevimli nashrlarimizni nima uchun o'qimasligining sababini endi tushundim. Gazeta o'qimagani uchun aslida singlimdan emas, undan qanday mavzudagi maqolalar o'qishini so'ramaganimiz uchun o'zimizdan xafa bo'lishimiz lozim ekan. Shu-shu har gal onam va o'zim uchun turli nashrlarni sotib olayotganimda singlim uchun «Tong yulduzi» olishni odat qildim. Afsuski, bu gazeta do'konlarga juda kam miqdorda tarqatilar ekan. Ba'zan olishga ham ulgurolmay qolyapman. Sotuvchilarning «Bu gazetadan atigi 2 dona olamiz, uni ham bir zumda olib ketib qolishadi», degan gaplarini eshitib hayron qolaman. Boshqa nashrlar kabi «Tong yulduzi»ni ham do'konlarga ko'proq tarqatishning imkoniyati yo'qmikin-a?..

Yayraxon PO'LATOVA,
«Yangi avlod» klubi a'zosi.

Tahririyatdan:

Yayraxonning gapida jon bor. Chindan ham gazeta do'konlariga «Tong yulduzi»ni ko'proq chiqarishimiz kerak, deymiz-u, Bosh muharririmiz bunga ko'nmaydilar. «Tong yulduzi» o'quvchilarning uyiga ularni qidirib borishi kerak, deyдилar. Qachongacha maktab o'quvchisi do'konga yugurib gazeta sotib olib yuradi. Bundan ko'ra u o'z vazifasi, ya'ni maktabda yaxshi va a'lo baholarga o'qishni uddalashi kerak. Gazetaga vaqtni boy bermay, shu kunlarda bir yilga obuna bo'lsin. Chunki gazetamiz obunachilarga arzon yetib boradi. «Tong yulduzi» shu kunlarda do'konlarda 150 so'mdan sotilayotgan bo'lsa, obunachilar qo'lga 45 so'mdan yetib boradi.


Bir hisobda Bosh muharrir haq. Vaqtni boy bermay, o'z gazetangiz «Tong yulduzi»ga tezroq obuna bo'ling. Mamlakatimiz bo'ylab, har bir sinf o'ntadan «Tong yulduzi»ga obuna bo'lishga kirishib ketdi. Sizning sinfingizdagi obunachilar ro'yxati nechtaga yetdi?

Bu borada qanday muammo va jumboqlar bor?

Bu haqda bizga albatta yozib yuboring. Eng yaxshi tashviquodchi va targ'ibotchilarni «Tong yulduzi»ning joylardagi muxbiri qilib saylab qo'yamiz.

BOLALAR SPORTI

Aziz o'quvchilar, orangizda sportni sevmaydigan, uning biror turi bilan muntazam shug'ullanmaydiganlar yo'q ekanini yaxshi bilamiz. Gazetamizning har bir sonida berib borilayotgan sport sahifasini zo'r qiziqish bilan o'qib borayotganingiz ham bizni quvontiradi. Shu kunlarda respublikamizda yurtboshimizning tashabbuslari bilan bolalar sportiga juda katta e'tibor berilyapti. Chindan ham sog'lom bola - polvon boladir. Ammo o'sha polvonlarni to'g'ri yo'lga solib yuborish, ayni chog'da o'z gazetangiz - «Tong yulduzi»ning ham vazifasidir. E'tibor berib qarasa, hamma to'polonchilar, ko'plab dakki eshitib, tekkanga tegib, tegmaganga kesak otadiganlar - sog'lom, baquvvat bolalardan chiqadi. O'sha baquvvat, kuchlilar o'z xatti-harakatlarini maydonda ko'rsatsalar, ulardan ertangi kun Maradonna-yu Pelelari, Muhammadqodir-u Mirjalollari yetishib chiqadi. Shuni inobatga olgan holda, «Tong yulduzi»da «Bolalar sporti» ilovasini tashkillashga ahd qildik. Har oyda ikki marotaba chop etiladigan ilova Sizlardan kelayotgan xat va xabarlar asosida tayyorlanadi. Bu sonda «Bolalar sporti»ning ilk sonini o'qisiz.



XOHISH BO'LSA BAS

Aziz bolajonlar! Siz-u bizning kundalik hayotimizda uchrab turadigan ba'zi bir kasalliklarni davolashda faqatgina dori-darmonlar emas, balki egnimizdagi kiyimlarning ham dorilaridan qolishmaydigan davolovchi xususiyatlari bor ekan. Qanday deysizmi? Bu xususda tikuvchi-modelyer Rivojiddin ISLOMOV shunday deydi:

-Atlas matodan tikilgan kiyimlar teri kasalliklariga, jun matolardan tikilgan kiyimlar esa bod kasalligiga davodir. Atlas matolar pilladan tayyorlangan shohi-iplardan (ipaklardan) to'qiladi. Ipak qurtlari oq tutning barglari bilan oziqlanishadi va pilla o'rashadi. Ushbu tutning mevasi va barglari ming bir dardga davodir. Jun matolar esa tog'u toshlar bag'rida o'sgan dorivor g'iyohlar bilan oziqlanadigan jonivorlarning junidan tayyorlanadi. Buni qadim-qadimdan ajdodlarimiz yaxshi bilishgan. Momolarimiz, qizu jivonlarimiz hamisha ushbu matolardan tanlab, o'zlariga kiyimlar tiktirishgan. Yaqinda Samarqand va Buxoro shaharlarida bo'lganimda yevropalik sayyohlarning katta qiziqish bilan do'konlardan atlas matolar sotib olishayotganini guvohi bo'ldim. To'g'risi, bundan g'ururlandim. Qiziqib sababini so'raganimda, «O'zbek

qizlarining rangi toza. Kiyimida bir sir bordir-da, deb olayapmiz atlaslarni»,- deyishdi.

-Tikuvchi - modelyer deyilganda, ko'proq ko'z o'ngimizda xotinqizlari miz gavdalanadi. Siz nega bu kasbni tanladingiz?

-To'g'ri, bu kasbda mehnat qilayotgan erkak kishilar ozchilik. Ular ham ayollar libosida bir-



hozirda Toshkent Madaniyat Institutining 4-kursida tahsil olayapman. Kuni kecha oliygohimizda bo'lib o'tgan «Xonatlas jilolari» tanlovida yaratgan liboslarim I-o'ringa loyiq deb topildi.

Men avvalo har bir mijozimning yuz ko'rinishiga e'tibor beraman. Ularning qaddi-qomatini ko'rib, xayolan shu libosda tasvirlayman. Ko'pincha bolalar kattalarga taqlid qilib kiyinishadi. Bu noto'g'ri albatta.

Ular o'z yoshiga munosib kiyinishlari lozim. Ayniqsa, maktab formasi bir xilda, partada o'tirib yozish uchun qulay bo'lishi kerak. Libos ham bola ongiga ta'sir qiladi. Bir-biridan kamziyod bo'lmagan bir xillikda o'quvchilar o'zlarini erkin sezishadi. Ayni kunlarda yanada qulayroq maktab formasi yaratish ustida ham izlanayotgan ekanman, O'foboyim, Kumushbibi, Nurxonlarning bejirim milliy liboslari faqatgina sahnalarda qolib ketmasin, deyman. «Tong yulduzi» o'quvchilariga esa «Hunarli kishi xor bo'lmas», degan maqolni eslatmoqchiman. Xohish bo'lsa albatta vaqt ham, imkoniyat ham, topiladi.

Jamila MUSO qizi suhbatlashdi.

Davolovchi matolar

biriga o'xshamagan ko'rib, xayolan shu libosda tasvirlayman. Ko'pincha bolalar kattalarga taqlid qilib kiyinishadi. Bu noto'g'ri albatta. Ular o'z yoshiga munosib kiyinishlari lozim. Ayniqsa, maktab formasi bir xilda, partada o'tirib yozish uchun qulay bo'lishi kerak. Libos ham bola ongiga ta'sir qiladi. Bir-biridan kamziyod bo'lmagan bir xillikda o'quvchilar o'zlarini erkin sezishadi. Ayni kunlarda yanada qulayroq maktab formasi yaratish ustida ham izlanayotgan ekanman, O'foboyim, Kumushbibi, Nurxonlarning bejirim milliy liboslari faqatgina sahnalarda qolib ketmasin, deyman. «Tong yulduzi» o'quvchilariga esa «Hunarli kishi xor bo'lmas», degan maqolni eslatmoqchiman. Xohish bo'lsa albatta vaqt ham, imkoniyat ham, topiladi.



maktabining erkaklar ustki kiyimi bo'yicha mutaxassis-bo'limini imtiyozli ravishda tugatdim. Dastlab «Yulduz» fabrikasida, so'ngra o'zim mustaqil ravishda yonimga shogirdlarimni olib, turli liboslar tika boshladim. Sevimli kasbimni davom ettirgan holda

REPETITORGA BORISH SHARTMI?...

Ba'zan avtobusda yoki metroda qo'llariga qalin kitob va daftarlarini olib repetitorlar huzuriga shoshilayotgan tengdoshlarimni uchratib qolaman. Ularning ko'pchiligi akademik-litseylarda tahsil olishadi. Nima, bu ilm dargohlarida darslar yaxshi o'tilmaydimi? Repetitorlarga boradigan bo'lishsa maktabda o'qishsa ham bo'lardiku,- deb o'ylayotgandirsiz? Ba'zan o'zim ham bunga hayron bo'laman. Akademik-litseyimizda o'qish jarayonida har kuni axborotnomalar bo'yicha TEST savollarini yechamiz. Ba'zi ustozlarimizning aytishicha, bular kamlik qilar emish. Maxsus fanlar bo'yicha alohida o'qituvchilarga borib shug'ullanishga hammaning ham qurbi yetavermaydi. Ayniqsa, viloyatlardan kelib o'qiydigan yigit-qizlarga yotoq joy va repetitor to'lovlari albatta og'irlik qiladi. Axir bitta fan uchun ikki ming so'm berib bir kunlik repetitorga qatnasak, beshta fan uchun qancha mablag' ketadi. O'tonalarimizning barchasini ham bunga qurbi yetavermaydi. O'z navbatida akademik litseylarning nufuzi maktablardan yuqoriroq. Ularda bir yil ziyod o'qitiladi. Bas shunday ekan, barcha oliy o'quv yurtlariga bo'ladigan imtihonlarning TEST savollari to'liq o'tilib, kundalik darslarimiz davomida ustozlarimiz bilan birgalikda uning yechimlarini o'rgansak nur ustiga a'lo nur bo'lardi. Shunda sababsiz darsdan qolishlar, ayrim hollarda dars paytida tashqariga chiqib ketishlar, turli bahonalar kamayarmidi? Eng muhimi, repetitorlarga qatnamasdan, litseylarda olgan bilimlarimiz bilan kifoyalanardik.

Nuriddin SAYFULLO o'g'li, Litsey talabasi.

Televideniya orqali kompyuterlarda bemalol ishlab, zamnaviy sinflarda tahsil olayotgan tengdoshlarimni ko'rib havasim kelardi. Uzoq qishloq maktablarigacha yetib borgan kompyuterlar poytaxtimizning qoq o'rtasida joylashgan bizning maktabimizga yetib kelmagandi-da. Qolaversa, har oyda maktab fondi uchun 500 so'mdan pul yig'ib olinardi. Bir oiladan 3-4 bola maktabga qatnasa, ularning ota-onasi 1,5-2 ming so'mdan berishga majbur

YANGI DIREKTORDAN UMID...

bo'lardilar. Yil oxirida esa maktab ta'miri uchun alohida pul yig'ilardi. Lekin yangi o'quv yilida hech qanday o'zgarish sezilmasdi. Bu yil ham shunday bo'ldi va... direktorimizni ishdan olishdi. Endi bor umidimiz yangi saylanadigan direktordan. Men bu gaplarim bilan o'z maktabimni yomonlamoqchi emasman, balki havas va orzularimni o'rtoqlashmoqchiman... Nasib bo'lsa, ulg'aysam bor kuch-g'ayratimni maktabimni gullab-yashnashi uchun sarflayman.

Iroda JALILOVA, Toshkent shahar, Chilonzor tumanidagi 131 - o'rta maktabning 5 - «V» sinf o'quvchisi.

«...QALB QONI ICHRA BIR GAVHARI KONDIR BILIM»

«Assalom Ustoz!» Bu so'zni takror va takror aytmaylik, baribir yoqimli. Bugun esa bu so'z yanada yoqimli jarangladi. Sababi, 10-«V» sinf qizlari tayyorlagan tadbir ana shunday nomlandi-da.

Tadbir O'zbekiston qahramoni, shoir A.Oripovning ushbu she'riy misralari bilan boshlandi:

*Olamda ko'p orur muborak onlar,
Fabarruk zotlar ham garchand ko'p orur.
Sizgadir ilk rahmat aziz insonlar,
Munis muallimlar, sizga tashakkur.*

Shundan so'ng o'quvchilarning tabriklari kuy va qo'shiqqa ulanib ketdi. Ustozlarga dil so'zlarini izhor qilishdi.

Ha, aytmoqchi, ikki og'iz so'z o'quvchilarning bilim maskani haqida. Poytaxtimizning Shayxontohur tumanida joylashgan maktabda o'quvchilar ishdan ajralmagan holda ta'lim-tarbiya olishadi. Shuning uchun ham bilim maskani 23- katta yoshlilar ta'lim markazi deb yuritiladi-da.

Ularga tajribali va talabchan ustozlar saboq beradilar. Maktab rahbari Anvar aka Parpixo'jaev, o'quv ishlari bo'yicha rahbar Marg'uba opa Rixsiyevalar o'quvchilarga barcha kerakli va yetarli sharoitlarni yaratishga harakat qilishadi.

Bugungi bayram tadbirida o'quvchilardan Muazzam Hakimova, Laziza Boborahimova, Komila Sultonova, Nigora Komiljonova, Feruza Ismoilova kabilar bayramni yanada chiroyli va qiziqarli o'tishiga o'z hissalarini qo'shdilar. Bu borada sinf rahbari, matematika o'qituvchisi Dilbar opa Ibodovanning mehnati katta bo'ldi.

Tadbir so'ngida o'quvchilar hadislardan, hikmatli so'zlardan o'qidilar. Donishmandlarning aytib o'tgan gaplari barchani sergaklantirdi. Bilim va hunar insonning zeb-ziynati ekanligini dildan his etgan holda Yusuf Xos Hojibning ushbu misralarini qayta-qayta takrorladilar: «Bilim ham hunar ol, qadrla uni, bilim-la hunar ham qadrlar seni».


Feruza ODILOVA.

«OCHIQ ESHIKLAR»

Kuni kecha Buxoro viloyati, G'ijduvon tumanidagi 1-son Bolalar va o'smirlar maskanida «Yosh qalamkashlar» to'garagi a'zolari bilan birgalikda «Ochiq eshiklar» deb nomlangan kecha o'tkazildi. Ushbu tadbirga 43-maktab, 15- maktab hamda 30-sonli maktab o'quvchi va o'qituvchilari tashrif buyurishdi. Kechada vatan shukuhi, ustozlar va onajonlarni madh etuvchi kuy va qo'shiqlar, jozibali raqslar ijro etildi. Rang-barang bezaklar, qiziqarli sahna ko'rinishlari, yig'ilganlarda katta taassurot qoldirdi. Tumandagi 30-maktab o'quvchilari har tomonlama puxta tayyorgarlik ko'rganliklari bois tadbirida o'zlarining yuksak mahoratlarini namoyish etdilar. Kechamiz maroqli o'tdi.

Muqaddas QAYUMOVA, Buxoro viloyati, G'ijduvon tumanidagi 30-maktabning 8- «V» sinf o'quvchisi.

BOLALAR SPORTI



Safarimizdan asosiy maqsad - yurtimizda bolalar sportiga berilayotgan e'tibor va g'amxo'rlik darajasi qishloq joylarida qay ahvolda ekan? Bu borada olib borilayotgan ishlar

Muxbir safardan qaytdi

bilan yaqindan tanishish niyatida Farg'ona viloyati, Uchko'prik tumani Bolalar sport jamg'armasida

guruhlarda 414 nafar sportsevar bolalar saboq oladilar. Ulardan 96 nafarini qiz bolalar tashkil etadi. Tumanimizda sportsevar qizlarning soni ortib borayotgani quvonarli holdir. Axir ularning soni 5864 nafarga yetib turibdi. Sportning yengil atletika, stol tennis, katta tennis, voleybol, futbol, basketbol kabi turlari

muassasalarida tarbiyalanayotgan kichikintoylarimiz «Mahallamiz polvonlari» va «Kichikintoy - 2004» kabi qiziqarli bellashuvlarning eng faol ishtirokchilari bo'lishyapti.

«Kamolot» Yoshlar ijtimoiy harakati hamda «Mahalla» jamg'armalari bilan hamkorlikda tashkillashtirilgan sport musobaqalarida ko'plab iqtidorli

UCHKO'PRIKLIK CHEMPIONLAR

bo'ldik. Jamg'armaning bosh mutaxassisi Abdumutal Isломov bizga shunday hikoya qiladi:

-Tumanimizdagi hamma bolalar ham sportni jon-dildan sevishadi. Biz ularga yetarli shart-sharoitlarni yaratib berishga harakat qilyapmiz, albatta. Mubolag'asiz aytadigan bo'lsak, tumanimiz viloyatda bolalar

qizlarimizning eng sevimli mashg'ulotiga aylanib qolgan.


Hozirgacha tumanimizning 27 ta mahallasida oddiy sport maydonchalari qurildi. Yaqinda Kenagas qishloq fuqarolar yig'ini Qo'shtepa qishlog'ida sport zali qurib bitkazildi.

Bolalar sportini yanada rivojlantirish hamda mahallalarda sportning ommaviyligini oshirish

sportchi bolalarni «kashf qilyapmiz». 6 yoshdan 17 yoshgacha bo'lgan bolalardan 15.590 nafari «Alpomish va Barchinoy» test sinovlaridan muvaffaqiyatli o'tdilar. Bir so'z bilan aytganda, tumanimizda chempionlar soni ko'paymoqda. Shu kungacha tumanimiz mohir sportchilari, sport inshootlari hamda sportni ommalashtirish borasidagi yutuqlari bilan viloyatda yetakchilik qilayotgan ekan, bu estafetani qo'ldan bermaslikka astoydil harakat qilamiz...

Abdumutal aka chindandan tumanda bolalar sportining ommalashuvi uchun astoydil qayg'urmoqdalar. Uchko'priklik chempionlar orasidan ham jahon chempionlari, Osiyo chempionlarini yetishib chiqishiga umid qiladilar.

Darvoqe, o'tgan hafta poytaxtimizning «JAR» sport sog'lomlashtirish majmuasida bolalar va o'smirlar o'rtasida bo'lib o'tgan «O'zbekiston kubogi-2004» musobaqalarida ham tumanning yosh sportchilari ishtirok etdilar. Bunday musobaqalar qishloq bolalarining sport mahoratlarini oshirishlarida katta tajriba maktabini o'tamoqda.



sporti bo'yicha olib borilayotgan ishlar darajasida birinchi o'rinda turibdi.


Tumanimizda bitta bolalar va o'smirlar sport maktabi, (BO'SM) hamda bolalar va o'smirlar futbol maktabi (BO'FM) faoliyat ko'rsatmoqda. BO'SMda 30 ta

maqsadida «Sog'lom oila», «Otam, onam va men - sportchidir oilam» nomli an'anaviy sport musobaqalari tez-tez o'tkazilmoqda. Ularda 44 mahalladagi 970 ta oila vakillari muntazam ishtirok etmoqdalar. Maktabgacha ta'lim

KOLLEJDA KATTA BAYRAM

Andijon shahridagi o'rta-kichik Biznes kollejida bugun o'zgacha bayram bugun o'zgacha bayram kayfiyati hukmron. Talabalar o'rtasida o'tayotgan shaxmat-shashka musobaqasi avjida. Unda 41-guruh o'quvchisi Sherzodbek Xolmatov barcha raqiblarini dog'da

dargohimizning sport zalida o'tkazishlari bizni juda quvontiradi. Tajribali jismoniy tarbiya o'qituvchilari bilan birgalikda sportning yengil atletika, futbol, basketbol, shaxmat-shashka kabi turlari bilan muntazam shug'ullanadilar. Bugungi





qoldirib, g'oliblikni qo'lga kiritdi.


Mazkur kasb-hunar kollejida ta'lim olayotgan talabalarning bari sportga mehri baland o'g'il-qizlardir. Tez-tez o'tkazilib turiladigan turli musobaqalar juda qiziqarli, maroqli o'tadi.

- O'quvchilarimizning bari irodali, qat'iyatli yoshlar, - deydi g'urur bilan kollej direktori Zafarjon aka Abdullayev. Ular bo'sh vaqtlarini allaqanday klublar, diskoteka va billiardxonalarda emas, ilm

musobaqamizda Sherzodbek o'z g'alabasi bilan barchamizni mamnun etdi va viloyat sport qo'mitasining diplomini qo'lga kiritdi. Kollejimizda u kabi sportsevar bolalar soni kundan-kunga ko'paymoqda...

O'quvchilari g'alabasidan xuddi o'zinikidek shodlanayotgan kollej direktorining so'zlarini tinglar ekanmiz, undagi g'ayrat va shijoatga, bolalar sportiga bo'lgan e'tiborga astoydil havas qildik.






SIROJIDDIN OSIYO CEMPIONATIGA BORADIMI?

Yodingizda bo'lsa, gazetaning avvalgi sonlarining birida poytaxtimizning Sobir Rahimov tumanida joylashgan 106-zaif eshituvchi bolalar maxsus maktabining 5-sinf o'quvchisi Sirojiddin Zayniddinovning Germaniyaning Malenti shahrida shaxmat bo'yicha bolalar va o'smirlar Jahon chempionatida chempion bo'lib qaytgani haqida xabar qilgandik.

Tabiatan tirishqoq, izlanuvchan bu tengdoshingizga havas qilgandirsizlar-a? Kichik chempionimizning musobaqadan qaytgandan buyon qanday ishlar bilan mashg'ul ekanligini bilishga qiziqdik. Keling, yaxshisi bu haqda Sirojiddinning o'zidan eshitib ko'raylik:



-Men Malenti shahridan chempion bo'lib qaytganimdan so'ng, g'oliblik nashidasida yayrab yurdim. Rosti, g'oliblik sportchiga katta kuch berar ekan. Ammo o'ziga yarasha mas'uliyat hissi yelkada turar ekan. Jahon chempionatida kuchli shaxmatchi tengqurlarim bilan bellashganimda yanada kuchliroq bo'lishim kerakligini bilgandim. Hozir biz shahrimizning 15-BO'SMida grossmeyster Georgiy Borisinka yordamida mashg'ulotlardamiz. Soatlab shaxmat donalariga tikilib dona surar ekanman, bir xayol meni o'yantiraveradi: Dekabr oyida Singapurda sog'lom bolalar o'rtasida bo'lib o'tadigan Osiyo chempionatiga bora olamanmi? Unda ishtirok etishga ich-ichimdan umid qilayapman. Chunki yurtimizda bolalar sportiga e'tibor va g'amxo'rlik darajasi yuqoridir. Lekin dadamning bizga homiylar yordami kerak, degan fikrlari meni ikkilantirib qo'yyapti.



Har doimgidek «JAR» sport sog'lomlashtirish maskani sportsevar bolalar bilan to'la. Bugun bu yerda jahon chempioni

hozirgacha yomon emas. Ochig'i, biz bu musobaqaga g'oliblik uchun kelmadik. Maqsadimiz shogirdlarimizning mahorat va tajribasini oshirish.

Rustamjon TOSHMATOV - Qo'qon shahridagi Rufat Risqiyev klubining Bosh murabbiyi:


RUFAT RISQIYEV TURNIRINING G'OLIBLARI

Rufat Risqiyev an'anaviy xalqaro turnirning 4-bor o'tkazilayotgan bellashuvlari bo'lib o'tmoqda. Musobaqa qatnashchilari respublikamizning barcha viloyatlaridan tashrif buyurishgan.

Biz turnir qatnashchilaridan ayrimlari bilan yaqindan tanishdik:

Shuhrat YO'LDOSHEV - Namangan viloyati, Chortoq tumani «Chortoq ring» boks klubi rahbari:

-Biz ushbu turnirga 5 nafar shogirdlarimiz bilan kelganmiz. An'anaga aylangan bu-turnir har yilgidan ko'ra o'zgacha ruhda o'tmoqda. Chunki yurtimizning afsonaviy bokschisiga aylangan Rufat Risqiyev bu yil 55 yoshga to'ldi. Chempionlik kamarini bog'laganliklariga 30 yil to'ldi. Ushbu yubiley turnirning ahamiyati endigina boks olamiga qadam qo'ygan yosh sportchilar uchun ahamiyatlidir. Shogirdlarimizning natijalari



-Rufat Risqiyev nomli boks klubimiz O'rta Osiyoda yagona hisoblanadi. Klubimizda 170 nafar bokschilar tarbiyalanadi. Klubimiz raisi Burhonjon Mansurov yosh bokschilar uchun yetarli shart-sharoitlarini

yaratib berganlar. Eng quvonarlisi, biz shahrimizda o'z boks binomizga egamiz. Bir necha xalqaro turnirlar ishtirokchisimiz. Poytaxtning «JAR» maskanida o'tayotgan musobaqalarida 11 nafar shogirdlarimiz bilan qatnashmoqdamiz. 2 nafar bokschimiz mag'lubiyat alamini tatib ko'rishga ulgurgan bo'lsalar ham, ularning niyatlari hali yuksak.

Mashg'ulotlarga zo'r berib, galdagi turnirlarda albatta g'alabani qo'lga kiritish ishtiyoqi bilan yashayaptilar. «Yengilgan kurashga to'yimas» deganlari shu bo'lsa kerak-da.

Ishdan qaytishda bekatda tushib qoldim-da, ko'p qavatli imoratlarni oralab uyim tomon shoshildim. Tez-tez yurib kelar ekanman, piqillab yig'layotgan bolaning ovozi qulog'imga chalindi. Ovoz egasini izlab, atrofqa qaradim. 10-11 yoshlar chamasi bir bola yerga mukka tushib, yig'lab o'tirardi. Uning yoniga borib:

-Hoy, bola, nega yig'layapsan, seni kim xafa qildi? - so'radim undan.

Avvaliga bola menga e'tibor bermay, boshini ko'tarmay yig'layverdi. Mening undan javob kutib turganimni ko'rib:

-Mushugim o'lib qoldi. Hozir uni shu yerga ko'mdim, dedi qo'li bilan do'ppayib turgan tuproqni ko'rsatib.

-Shunga ham shuncha yig'isig'imi, ko'cha to'la mushuk, bittasini boqib ol, vassalom, - dedim bamaylixotir.

-Siz qayerdan ham bilardingiz, mening mushugim boshqacha edi, -dedi u ko'z yoshlarini mushti bilan artib, - unaqasi topilmaydi, ishonasizmi, u mening yaqin

MEHR DARYOSI

do'stim edi, hamma gaplarimni tushunardi.

Doim men bilan birga yurardi. Faqat bugun uni tashlab ko'chaga chiqqan edim. Qaytib uyga kirsam, u o'lib yotibdi...

Bola so'zini tugatar-tugatmas, yana o'ksinib yig'lay boshaldi. Shu payt ko'chaga bir ayol chiqib:

-Shoxruh, bo'ldi endi, uyga kir, - degancha biz tomon kela boshladi. Shunda bolaning ismi Shoxruh ekanligini bildim. Shoxruhning yosh to'la ko'zlarida g'azab uchqunlari porlab, haligi ayolga: «Sizni yomon ko'raman, siz mening mushugimni o'ldirdingiz, keting, bizning uyimizdan» deya baqirdi. Ayol mening oldimda bunday gaplarni eshitib uyaldi chog'i, nimadir degancha to'ng'illab ortiga burildi.

-Endi ancha tinchlanib qolgan Shoxruh so'ramasam-

da, meni o'ziga yaqin oldimi, har qalay dilini ochdi. Bular mening ammam, mehmonga kelganlar. «Mushuk odamga baxtsizlik keltiradi, mushugingni yo'qot», derdilar doim. Bu yolg'on gap-a, menga yuzlanib so'radi Shoxruh.

-Albatta yolg'on -uning fikrini tasdiqladim darrov.

-Bilasizmi, uyga kirganimda, ostonaga yonida katta kaltak yotganini ko'rib, avvaliga hayron qoldim. Keyin bilsam, mening mushugimni ammam shu kaltak bilan urib o'ldiribdi... Hozir ayajonim ishdan kelsalar, hammasini aytib beraman. Shoxruh nam kipriklarini pirpiratgancha, nigohini yerga qadab, o'yga toldi.

Shu turishida uning qalbida oqayotgan mehr daryosining ovozini eshitayotgandek edim...



YOZEF BLATTER YOSH FUTBOLCHILARNI SEVAR EKAN

Bolalar «Gol» loyihasini nima ekanligini bilasizmi? «Yo'q» deysizmi? Unda bilib oling:

FIFAning «Gol» loyihasi dasturining asosiy maqsadi - sizdek bo'lajak futbol yulduzlari uchun joylarda jahon talablariga javob beradigan zamonaviy stadionlar qurishdan iborat. Bunday tarixiy voqea bizning yurtimizda ham amalga oshishi rejalashtirildi. Chunki «Paxtakor» stadionida yangi sun'iy qoplama bilan qoplash ishlari rejalashtirilmogda.

Ezgu maqsadlar bilan yo'g'rilgan bu xayrli ishga bosh bo'layotgan Yozef Blatter sizdek sportsevar bolalarga alohida g'amxo'rlik va havas bilan boqdi. Har biringiz ko'zingizdagi mehmni, yurtga sadoqat deb bildi. Sizlarga katta ishonchlar bildirdi. «Gol» dasturining raisi janob Bin Xammam o'zbek futboli bayrog'ini xalqaro maydonlarda sarbaland etuvchilar ham yoshlardir, dedi. Sizlar yurtning ishonchi va umidi ekanligingizni hech qachon unutmasiz, deya niyat qilamiz.



AJDODLARGA MUNOSIB YASHAYLIK

Yurtimiz Olloh nazari tushgan diyor. Undan qanchadan-qancha olimlar-u fuzalolar, ahli donishlar yetishib chiqqan. Ana shunday ajdodlarimizga munosib avlod bo'lishimiz kerak. Lekin oramizda oltinga teng yoshlik damrlarining qadriga yetmaydiganlar ham, bilib-bilmay jinoyatchilik, giyohvandlik ko'chalariga kirib qolayotganlar ham yo'q emas.

Yaqinda maktabimizda «Ogohlik - davr talabi» mavzusida tadbir bo'lib o'tdi. Unda Xalqaro SPIDga qarshi kurash qo'mitasi a'zolari ishtirok etishdi. Tadbir a'zolari giyohvandlik illatining qanday paydo bo'lgani haqida ma'lumot berdilar. O'quvchilar guruhlariga bo'linib, shu mavzu asosida rasmlar chizishdi, qiziqarli o'yinlar o'ynab, ko'rgazmali chiqishlar qilishdi. O'zlarini

qiziqtirgan barcha savollarga to'liq javob olishdi. G'oliblarga homiyar tomonidan sovg'alar hamda Mirzo Ulug'bek tumanida joylashgan yoshlar klubi qoshidagi to'garaklarga bepul qatnash imkoniyati berildi.

Tadbirdan so'ng, uning barcha ishtirokchilariga Xalqaro SPIDga qarshi kurash tashkiloti a'zolari tomonidan «Giyohvandlik - asr vabosi» nomli kitobchalar tarqatildi.

Biz o'quvchilar tadbir tashkilotchilariga, homiyariga hamda «Sharq» mahallasi raisi A'zam aka Mahmudovga, maktabimiz direktori Mukarram opa Teshaboyevaga, jonkuyar o'qituvchilarimizga o'z minnatdorchiligimizni bildiramiz. Bunday tadbirlar tez-tez o'tkazib turilsa, foydadan holi bo'lmasdi.

Gulshan ERGASHEVA,

Toshkent shahar, Chilonzor tumanidagi 281-maktab o'quvchisi.

Abrorjon to'rt yildirki, Qo'qon shahridagi Rufat Rizqiyev nomli boks klubining a'zosi. Shu yillar mobaynida Abrorjon sportning boks turida yaxshi natijalarga ega bo'ldi. Otasi Botirjon aka ham boks ishqibozi. Uning o'g'li Abrorjondan umidi katta. O'g'li uchun oilada yetarli shart-sharoitlarni ham yaratib qo'ygan. Botirjon aka bugungi kunda farzandidan ko'ngli tog'dek o'smoqda.

Axir Abrorjon otasining niyatini amalga uchun boks zalida charchamayapti. q u l o q

MURABBIYLAR QIZIQISHI ORTDI

o s h i r i s h
m a s h g ' u l o t l a r d a n
Murabbiyning har bir saboqlariga soladi, o'rgatgan harakatlarini xuddi o'zidek takrorlashga intiladi.

Abrorjon Mahkamov, Qo'qon shahridagi 40-maktabda tahsil oladi. Odatda sportchi bolalar a'lochi bo'lmaydi, deyishadi. Ammo Abrorjon maktabdagi barcha fanlardan a'lo baholarga o'qiydi. O'rtoqlari uni «bokschi bola» deb atashadi. To'g'ri, Abrorjon boks qonun-qoidalarini puxta egallagan. Qator musobaqalarda g'oliblikni qo'ldan bermay kelyapti. Yaqinda Abrorjon poytaxtda o'tkazilgan Rufat Rizqiyev tumirida yana g'olib bo'ldi. Aynan shu musobaqada uning uchun yana bir omad unga kulib boqdi. Ikki yildirki, qo'qonlik yosh bokschi ga dong'i chiqqan sport maktablarida o'qish nasib etmayotgandi.


Nihoyat, u andijonlik yetakchi murabbiylar nazariga tushdi. Endi u Andijondagi Muhammadqodir Abdullayev, Ruslan Chagayev, Quvonchbek Toyg'onboyevlar bilim olgan sport maktabida o'qishni davom ettiradi.


GO'ZALLAR BELLASHUVI YAKUNLANDI

Sport musobaqalari borki, hayajonsiz, hayratsiz o'tmaydi. Ayniqsa, go'zal hissiyotlarga qorishiq badiiy gimnastikaning jozibasi insonni o'zgacha olamga boshlaydi.

Muhtasham «O'zbekiston» sport majmuasida badiiy gimnastika bo'yicha Jahon Kubogi bosqichi - «Sharq go'zali- 2004» musobaqalari yakun topdi. Dunyoning turli sarhadlaridan kelgan «malikalar» bellashuvida muxlislar bir-biridan ajoyib tomoshalarga guvoh bo'ldilar.

Sport yulduzi Alina Kabayeva ushbu musobaqada Jahon kubogining oltin medalini qo'lga kiritdi. Qozog'istonlik Aliya Yusupova musobaqaning kumush medaliga, rossiyalik sportchi Olga Kapranova esa bronza medaliga sazovor bo'lishdi.





PAXTAKOR YANA G'OLIB

Bolalar, xabaringiz bor, o'tgan hafta poytaxtning Markaziy «Paxtakor» stadioni futbol muxlislari bilan gavjum bo'ldi. 2004 yilgi O'zbekiston kubogi g'olibligi uchun o'tkazilgan bellashuvlar g'oyatda qiziqarli kechdi.

Hal qiluvchi bahslarda maydonga tushgan poytaxtning ikki jamoasi - «Paxtakor» va «Traktor» bosh sovrin uchun kurash olib boridilar. 90 daqiqalik davom etgan qizg'in bellashuvlarda 3:2 hisobida «Paxtakor» jamoasi g'oliblikni qo'lga kiritdi va besh marta kubog musobaqasining sohibiga aylandi.

Ushbu musobaqa yakunida O'zbekiston Ichki Ishlar vaziri Z. Almatov ishtirok etib, g'olib jamoa sardori Baxtiyor Ashurmatovga tantanal ravishda sovrinni

topshirdi.

«Paxtakor»chilar ushbu mavsumda ham o'tgan yilgidek o'z muxlislari va sizlardek yosh futbolchilarni xursand eta oldilar. Yaqindagina Tachmurod Agamurodov shogirdlari Osiyo chempionlar ligasi yarim finaliga chiqdilar. Bu ham o'zbek futbolining zafarli odimlaridan darak berib turibdi.

Bir yo'la uch yo'nalish bo'yicha bosh sovrin uchun kurash olib borgan «Paxtakor» O'zbekiston kubogi bellashuvlarida g'alaba qozonib, maqsadiga erishdi. Endi jamoa ushbu muvaffaqiyatni O'zbekiston chempionati va Osiyo chempionlar Ligasida davom ettirish niyatida.

Sevimli «Paxtakor»imizga biz ham yangi - yangi zafarlar tilab qolamiz. Axir aytishadiku, hayot - yashash va zafarlar sari intilishdan iborat deb.



Do'st - do'stga quvyat deydi. Ushbu purma'no so'zlar Malayziyada bo'lib

terma jamoalari bilan chorak final yo'llanmasi uchun maydonga tushdilar. Rauf Inileyevning shogirdlari

Shunisi quvonchliki, Rauf Inileyev murabbiylik qilayotgan yoshlar terma jamoamizning deyarli barcha a'zolari maxsus futbol



KUCHLILAR

o'tayotgan navbatdagi Osiyo chempionatida yana bir bor o'z isbotini topmoqda.

Yigirma yoshgacha bo'lgan sportchilar o'rtasidagi bu bellashuvlarda qit'amizning eng kuchli 16 jamoasi ishtirok etmoqda. Ular qatorida mamlakatimiz yosh futbolchilari ham g'oliblik uchun to'p surmoqdalar. Vakillarimiz «S» guruhida Suriya, Hindiston va Laos

MALAYZIYADA UCHRASHDILAR

dastlabki uchrashuvda laosliklarni 5:2 hindistonliklarni esa 2:1 hisobida mag'lubiyatga uchratdilar. Suriyaliklar bilan bo'lgan uchrashuvni 1:1 hisobida yakunlab, guruhda birinchi o'rinni egalladilar.

Kuni kecha hamyurtlarimiz «D» guruhida ikkinchi o'rinni egallagan janubiy koreyalik yosh futbolchilar bilan yarim final yo'llanmasi uchun kurash olib bordilar.

maktablarining tarbiyalanuvchilari. Ular orasida sizning tengdoshlaringiz ham borligi ayniqsa quvonarlidir.



O'ZBEK FUTBOLIDA-OLAMSHUMUL VOQEA

O'zbek futbolida tarixga nazar tashlasak, maqtashga arzigulik sahifa va voqealar ko'p. 1994 yil O'zbekiston Osiyo o'yinlarida chempion bo'ldi. 2005 yili Birlashgan Arab Amirliklarida o'tkazilgan jahon chempionati Finalida ishtirok etdi. Endilikda terma jamoamiz «Jahon chempionati - 2006» saralash musobaqalari sari zafarli odimlamoqda.

Yaqinda yurtimizga FIFA prezidenti Yozef Blatter tashrif buyurgandi. Tashrifning asosiy maqsadi «Gol» loyihasi bo'yicha poytaxtimizning markaziy «Paxtakor» stadionida sun'iy qoplamali yangi stadion barpo etish edi. Bu loyihada ko'zda tutilgan yangi stadionga tamal toshi qo'yildi.

Bolajonlar, Yozef Blatter kim ekan deb



qiziqayotgan bo'lsangiz kerak-a? Bu inson 1948-71 yillar davomida Shveysariya ligasida to'p surgan. 1956 yildan Shveysariya sport jurnalistlari assosiyasi a'zosi. 1970-75 yillarda «Ksamaks» klubida rahbar bo'lgan. 1998 yil 8-iyun kuni bo'lib o'tgan 51-kongressda Yozef Blatter Xalqaro futbol uyushmasining sakkizinchi Prezidenti etib saylangan.



TO'P O'YINI

To'pli o'yin asti turkiylarga xos,
Chavgonning yuz xilin o'ynashgan gurros,
Bu kun tomirimda jo'shdi ehtiros,
Olamni qarattidi turkning futboli.



Kunchiqar yurtda oy ko'rsatdi jamol,
Ko'hna Yevropa tot, Braziliya tot,
Turkiyaning olgan sovrini halol,
Dovrug'in taratdi turkning futboli.



Pete, Maradona... Mashhuri jahon,
Ular qatoriga qo'shildi Xoqon,
Muxlisga muborak yangi qahramon,
Afsona yaratdi turkning futboli.



Dertlar: yana oqar bir oqqan daryo,
Olashgoh bor ekan portlagay ziyo,
Endi to'p o'yinda ogoh bo'l dunyo,
Turklarni uyg'oldi turkning futboli!

Asror MO'MIN.

Nigina kechagi voqeadan hamon o'ziga kelolmay, parishon holda maktabga yo'l oldi. Kechagina uning vujudidagi yurak ishonch tog'ining cho'qqisida masrur urib turardi. Bugun ana shu tog' qulagan, tirgaksiz qolgan yuragi shunchalar og'ir ediki, uning ko'tarishning o'zi bo'lmasdi... Ichki bir tug'yon ta'sirida qolgan Nigina sinfga qanday kirib kelganini ham payqamay qoldi. Sinfdoshlarining sirli qarashlari-yu, shivir-shivirlaridan biroz o'ziga keldi. ...Nigina a'lochi qiz. Dadasi ham kattakon bir zavodning rahbari, maktabni o'z otalig'iga olgandi. Shuning uchun bo'lsa kerak, Nigina doimo ustozlarining nazarida edi. Sinfdoshlari ham atrofida girdikapalak edilar. Faqatgina Dildora ismli sinfdoshi unga hecham xushomad qilmasdi. A'lo o'qisa-da, juda kamtarona kiyinadigan Dildorani boyvuchcha sinfdoshlari davra qurib olib, kulgi qilishardi. Bugun ham sinfdoshlari xuddi ana shunday davra qurishgan, hangoma qizigandan-qizigan. Ammo bu safargi hangomaning qahramoni Dildora emas, Nigina. Ha, Nigina sezib turibdi. Shumxabarning qanoti borligini ham yaxshi biladi.

O'ZINI QO'LGA OLGAN NIGINA

Nomard dadasi sochiga oq oralaganda o'zga bir ayolnikiga ketib qoldi-yu. Aytishlaricha, undan o'g'li ham bor emish. Niginaning aybi nimada, qiz bola bo'lib tug'ilganidami?.. Bir paytlar keng dunyo siqqan ko'ngliga hozir qil ham sig'maydi. Dugonalarining qiliqlari esa dard ustiga chipqon bo'ldi. Darsga ham kirmay, ko'chada bemaqsad tentirab yuraverdi. Mittigina yuragi daraxtlardan uchib tushayotgan yaproqlar kabi ingrar, bunday dardga dosh berishga madori yetmasdi. Istagan narsasiga osongina erishishga ko'nikib qolgan Niginaning qalbini kemirayotgan dardi bedavodek tuyulardi. Ko'z yoshlari kuz yomg'iridek shashqator bo'lib yo'lkadan ketib borar ekan, yelkasiga tushgan turtkidan o'ziga kelib, orqasiga o'girildi. Qarshisida o'zidan atigi ikki yosh katta bo'la turib, uch marta turmush qurishga va ajrashishga ulgurgan Maftuna turardi. Maftuna anchadan buyon bu «boyvuchcha qiz»ni tuzog'iga iltirish uchun qulay fursat

poylab yurardi. U ehtiyotkorlik bilan qizning yuragiga qo'l solib ko'rdi. Niginaning alamli hikoyasini diqqat bilan tinglagach, hamma narsani, hatto o'zini ham unutishni xohlayotgan qizga «yordam qo'lini cho'zdi». Eng yaqin kishisining oqibatsizligidan gangib qolgan Nigina hamyonidagi bor p u l i n i Maftunaning qo'liga tutqazdi. Xaloskorining dorisidan so'ng Niginaning boshi aylanib, ko'ngli behuzur bo'ldi. Birozdan so'ng behuzurlik o'rnini allaqanday ko'tarinki kayfiyat qoplab oldi. O'zini qushdek

yengil his etib, barcha g'am-anduhlarini unutgandek bo'ldi. Birozdan so'ng dugonalar tarqalishdi. Nigina gandraklagan ko'yi boshi oqqan tomonga keta boshladi. Agar buvisinikidan qaytayotgan Dildoraga uchrab qolmaganida, u uyiga yetib olishi dargumon e d i . Dildora ukasi y o r d a m i d a Niginani o'z uyiga olib kelib, ehtiyotkorlik bilan o'rniga yotqizdi. Yarim tunga boribgina Nigina biroz o'ziga keldi. Boshining qattiq og'riyotganidan shikoyat qilgan Niginani dugonasi qattiq bag'riga bosdi: -Hayriyat-e, o'zingga kelding... -Men esa hecham o'zimga kelmay, o'lib ketishni xohlardim,-dedi Nigina va yig'lab yubordi. -O'zingni qo'lga ol, dugonajon,-deya tasalli berdi unga Dildora.-Mening boshimga senikidan ham og'irroq sinovlar tushgan... So'ngra, uning ham dadasi nogiron bo'lib qolgan onasini tashlab ketganini, uylarini sotib, onasini davolatishganini, hozirda esa mana shu

tashlandiq kulbachada yashashga majbur ekanliklarini so'zlab berdi. Qizlarning bedorligini sezgan Dildoraning onasi nogironlar aravachasida xonaga kirib kelganida Niginaning ko'zlari katta-katta ochilib, fikri tiniqlashib ketdi. Hayotida uchragan ilk sinovga dosh berolmagani, dardiga allaqanday Maftunalarning «dori»sidan malham qidira boshlagani uchun o'z-o'zidan nafratlanib ketdi... Shu voqea sabab bo'ldi-yu, ikki dugona, ikki xasta qalb egasi opa-singildek bo'lib qolishdi. Maktabni a'lo baholar bilan tamomlab, o'zlari orzulagan oliygohlarga o'qishga kirishdi. Niginaning quvonchi cheksiz edi. Otasi ulardan yuz o'girgan kuni vujudida qulagan ishonch tog'i o'rnida mehr-oqibat deb atalmish avvalgisidan-da yuksakroq, masrurrog tog' paydo bo'lganini his qildi. Ana shu tog' cho'qqisini zabt etgan yuragi shunchalar yengil ediki, Nigina uning borligini hatto sezmasdi ham...

Shahnoza RAVSHANOVA,
Toshkent viloyati,
Chirchiq shahridagi
2 - ixtisoslashtirilgan maktab
o'quvchisi.




ANTIQA TARJIMA

Televideniya orqali Meksikaning ko'p qismli filmi - «Dikaya Roza» ya'ni «Shaddod Roza» namoyish etilayotgan kunlar edi. Agar ahamiyat bergan bo'lsangiz, teledasturlarda filmning nomini dastlab «Yovvoyi atirgul» deb yozishdi. Buni o'qib kelinoyimga: -Qarang, «Yovvoyi atirgul» deb tarjima qilishibdi. Axir Roza odamning ismi-ku,- dedim. Kelinoyim bo'lsa: -Nima qilibdi, Roza deb yozilgandan keyin atirgul deb tarjima qilishadi-da,- dedilar. -Unday bo'lsa, sizning Mamlakat degan ismingizni «Strana» deb tarjima qilish kerak ekan-da,-dedim bo'sh kelmay men ham... Ikkalamiz baravariga kulib yubordik.

«MARD»LARNING TUSHGAN JOYI

Qish kunlarining birida ikki aka-uka yuning tomiga chiqib olib tortishshdi: -Shu yerdan sakrasam, bilasizmi men qayerga tushaman, huv anavi yerga,-deya maqtandi ukasi. -Men esa sendan ham uzoqroqqa. Chunki mening oyoqlarim senikidan ancha uzunroq,-bo'sh kelmadi akasi. Ular sakrashdi va... ikkalasi ham suyagi singanlarni davolaydigan kasalxonaga tushishdi...



Gulnoza AZIMOVA, ToshDSHI qoshidagi xorijiy tillar akademik litseyi talabasi.

MANTIQUIY SAVOL

Yaqinda tarix darsida o'qituvchimiz bir mantiqiy savol bilan bizga murojaat qildilar. Har qancha bosh qotirmaylik, uning javobini topa olmadik. A'lochi bir sinfdoshimiz savolning javobini aytganda esa, shunday oson savolga javob topolmaganimizdan barchamiz uyulib qoldik. Quyida ana shu savolni sizga ham berib ko'rmoqchiman. Topqirlihu ziyrakligingizni bir sinab ko'ring-a. Javoblaringizni esa gazeta tahririyatiga yozib yuboring. Birinchi bo'lib to'g'ri javob yo'llagan tengdoshimga atalgan sirli sovg'am bor: «Qadimda Aleksandr Makedonskiyning otasi Filipp II ning bir asov oti bo'lgan ekan. Bir kuni

Aleksandr uni minadi. O'zidan boshqa hech kim minolmaydigan asov otni o'g'li minolganini ko'rgan otasi unga: «O'g'lim, sen ham o'sib-ulg'ayibsan. Endi bu davlat ikkimizga torlik qiladi. Sen o'zingga davlat tanla», debdi. Movarounnahrni 3 oyda bosib olaman deb o'ylagan Aleksandr, uni 3 yilda ham bosib ololmaydi». Savol shunday: Qadimda ikki buyuk sarkarda o'rtasida jang bo'lib o'tadi. Biri Aleksandr Makedonskiy, ikkinchisi Iskandar Zulqarnayn. Ulardan qay biri g'olib bo'lgan?

O'tkir QO'CHQOROV,
Toshkentdagi 316 - maktabning 7 - sinf o'quvchisi.

Tengdoshlaring ijodi

Dilorom UMRZOQOVA, Namangan politexnika instituti qoshidagi Akademik liseyning 2-bosqichida tahsil oladi. O'qishlari a'lo, adabiyotga, she'riyatga ishtiyoqi baland. Hayotda «Qiz bola sepli emas epli bo'ishi kerak», degan naqlga amal qilib yashaydi. Shuning uchun ham zardo'zlik, tikuvchilik, yumshoq o'yinchoqlar tikish kabi hunarlarni puxta o'rganishga harakat qilyapti. Quyida uning ijodidan namunalalar o'qiyisiz:

VATAN

Gar mendan so'rsalar, Vatan nima deb,
Bu muqaddas so'zda ma'no bor qanday?
Unda bormi boylik yoki biror zeb,
Insonni shunchalar asir etgudek?
Ne demog'im bilmay bo'laman hayron,
Unga javob bermog' mustahkul vazifa.
Undan ayrilganlar dillari vayron,
Bu go'sha neligin so'zlayman, tingla.
Kerakmas ta'rifu - tavsifga hojat,
Shart emas sha'niga aytnog' tasanno.
Yuraklarda, qalblarda yashasin abad,
Muhimi, biz uchun u bo'lsin tanho.

MUSAJABBULIK

O'z bog'imning o'zligin,
Anglab yetgani chindir.
Dovrug'i jahon kezdi,
Fan olingani chindir.
Diyorim jamolini,
Ko'rib ko'zim yashnagay.
Bu yurtida qalbi toza,
Pok insonlar yashagay.

Yurtbostim omon bo'lsin,
Xalqi, yurtini sevgan.
Porlayversin quyoshim,
Bu yurtni O'lloh sugyan.
Din, ishonch, imonimiz,
E'tiqodimiz butdir.
Farzandlari komil, zukko,
Bu shundayin zo'r yurtidir!

Dilorom UMRZOQOVA.

OLFIN KUZ

Sochlarimni mayin shamollar,
Astagina silab o'ldilar.
Daraxtlarning yaproqlariga,
Kuzdan darak berib ketdilar.
Dalalarda paxtalar oppoq,
Xuaddi yerga qorlar yoqqandek.
Febranadi oltin boshloqlar,
Go'yo sizga kulib boqqandek.
Oltin ko'ylak kiyib egniga,
Farovatin ko'z-ko'z qilar kuz.
Ishkomlardan mo'ralab uzum,
Deydi go'yo: «Mana meni uz!»

Mohima BOBOYEVA,
Xorazm viloyati, Xazorasp tumanidagi
45 - maktab o'quvchisi.

YANGI
TOPISHMOQLAR

Chiporim turib,
Qamchidek urib,
Furotmay to'g'ri,
Ketadi egri.

Qo'shaloq tog'dek,
Mevasi yog'dek,
Yechilmas beli,
Bu nima, Dili?

Miltillab ko'zi,
Ozadi o'zi.
Yosh to'kar tunda,
Uzlaydi kunda

Shlyapali, kuchli,
Bigizdek uchli
Bobomurod Chori o'g'li,
Surxondaryo viloyati,
Angor tumani.

«Taxt vorisi», «Kelajak vorislari» deymiz... Ammo «Vorisi» so'zining qanday ma'no anglatishini hammamiz ham bilamizmi? Voris - biror narsaga egalik qilish, davom ettirish ma'nolarini anglatarkan. Demak, poytaxtdagi 23-Bolalar musiqa maktabi qoshida tashkil etilgan «Vorisi» guruhining nomi ham bejiz shunday nomlanmagan ekan-da. Guruh rahbarlari Svetlana Abdushukurova va Diyora Babashevalar «Yalla», «Bolalar», «Bojalar» kabi

estrada dastalari faoliyatining davomchisi bo'lsin, deya guruhlariga shunday nom berishgan bo'lsa, ajabmas. Guruhda Xojiakbar Mahmudov, Qayum Ergashev, Jasur Soliyev, Abror Ibrohimov, Husniddin Mahkamov kabi a'zolaridan har birining o'z o'rni bor. Ularning san'atga bo'lgan oshuftaligi, artistlik mahorati, iste'dod-u intilishlari bois «Vorisi» tez orada ko'plab muxlislar ortirdi. Endi ularni bayram va tadbirlarda, istirohat bog'larida, umumta'lim maktablari va litseylarda, bolajonlar davrasida tez-tez uchratish mumkin. Guruhning qo'lga kiritayotgan yutuqlari ham maqtasa maqtagudek. Uning a'zolaridan biri Xojiakbar Mahmudov M.Ashrafiy nomidagi estrada xonandalik bo'yicha bolalar musiqa maktabi, san'at maktablariaro o'tkazilgan ko'rik-tanlovda

tuman **San'atim - saodatim** bo'yicha

1-o'rinni, shahar bo'yicha 2-o'rinni qo'lga kiritdi. «O'zbekiston - Vatanim manim» qo'shiqlar tanlovining tuman bosqichida 2-o'ringa sazovor bo'ldi. Umumta'lim maktablariaro o'tkazilgan qo'shiq bayramida «O'zbekiston», «Maftuningman», «Eynozanin» kabi qo'shiqlarini kuylab, 1-o'ringa loyiq topildi.

-O'g'lim tabiatan juda sho'x bola, deya hikoya qiladi Xojiakbarning onasi Vasilaxon opa. - Lekin qanchalik sho'xlik

HALI
NAVNIHOL

qilmasin, uni hecham koyib bo'lmaydi. Jahlingiz chiqib turgan bo'lsa ham bir zumda turli qiliqlari bilan sizni kuldirib yuboradi. Aktyorlik mahorati borligi uchun kattalar bilan ham, o'z tengdoshlari bilan ham bir zumda til topishib ketaveradi...

Hozirda «Vorisi»ning kuy va qo'shiqlari «Sezam», «Oriyat dono» to'lqinlarida tez-tez yangrab turibdi. Guruhning muxlislari «Assalom O'zbekiston», «Bolalar sayyorasi» kabi ko'rsatuvlar orqali uning ishtirokchilari bilan yaqindan tanishib olishdi.

O'z kuy va qo'shiqlari, chiqishlari bilan muxlislari orasida endi-endi tanila borayotgan «Vorisi»ni navniholga qiyoslagimiz keldi. Bu niholning ildizlari baquvvat daraxt bo'lib, shirindan-shakar mevalar berishiga ishonamiz.

Feruza JALILOVA.

KROSSVORDNING
SAVOLLARI:

BO'YIGA:

1. Aktyor, qiziqchi.
3. Kino nomi (hind).
4. Shaxmat bo'yicha Jahon chempioni (o'zbek).
5. Opera yulduzi.
7. O'quv quroli.
10. Futbol jamoasi.
14. Baliq nomi.
15. Bollevud yulduzi (hind).
18. Cholg'u asbobi.
20. Ko'hna, qadimiy shahar.

ENIGA:

2. Gazeta nomi.
6. Viloyat nomi.
8. Oromgoh nomi.
9. Azizov (aktyor).
11. Iroda (tennis ustasi).
12. Otabekova (xonanda).
13. guruh.
16. «Nihol» sovrindori.
17. shahri.
19. Uy hayvoni.

Dildora QO'SHJONOVA,
Qoraqalpog'iston Respublikasi,
Qo'ng'iroq shahri.

Ona yuring - oltin beshiqing
TONG
yulduzi

O'zbekiston bolalari va
o'smirlarining gazetasi

BOSH MUHARRIR:

Umida
ABDUAZIMOVA

TAHRIR HAY'ATI:

Turobjon JO'RAYEV,
Shuhrat AHMEDOV,
Botir UBAYDULLAYEV,
Jabbor RAZZOQOV,
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir
o'rinbosari),
Abdusaid KO'CHIMOV,
O'ktam OHUNOV,
Ergashvoy SARIQOV.

**Gazeta O'zbekiston
Matbuot va axborot
agentligida**

**N: 022 raqam bilan
2003 yil 11 dekabrda
ro'yxatdan o'tgan.**

Noshir

«O'zbekiston»
nashriyat-matbaa
ijodiy uyi.

Gazeta

«O'zbekiston»
nashriyat-matbaa
ijodiy uyi

kompyuter bo'limida
terib sahilalandi va
chop etildi.

Gazeta haftaning
dushanba kuni chiqadi.

Hajmi A-3,
2 bosma taboq.

Adadi - 11612
Buyurtma N: 619

Dizayn va sahifalovchi:

Otabek
ESHCHANOV.

Rassom:

Nodira MIRZAYEVA.

Navbatchi:

Ozoda
TURSUNBOYEVA.

Manzilimiz:

700129,

Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Obuna indeksi: 198

e-mail:
tong_yulduzi@rambler.ru

Tel: 144-10-38

144-38-10

144-21-75

Tel./ faks:
(99871) 144-24-45